



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI**

**SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**SAMARQAND VILOYATINING
STATISTIK AXBOROTNOMASI**

**2023-yil
YANVAR-IYUN**

Samarqand – 2023

SO‘Z BOSHI

Samarqand viloyatining statistik axborotnomasi – Samarqand viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, iqtisodiyot tarmoqlari hamda shahar va tumanlar holatini kompleks tavsiflovchi Samarqand viloyati statistika boshqarmasining choraklik nashri hisoblanadi. Statistik axborotnomada 2023-yilning yanvar-iyun oylari yakunlari bo‘yicha Samarqand viloyatining asosiy statistik ko‘rsatkichlari chop etilgan.

Uchbu nashrda 2017-yilning I-choragidan boshlab, hisobot davri uchun statistik ko‘rsatkichlar Evropa ham jamiyatning Iqtisodiy faoliyat turlari statistik tasniflagichiga (NACE Rev.2) asoslangan O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagich (IFUT–2) buyicha shakllantirilgan va taqdim etilgan.

Shu bilan birga, mavjud iqtisodiy faoliyat turlaridan foydalanishda IFUT–2 talablari qo‘llanilgan. Xususan, foydalanilayotgan yoki qayta ishlanayotgan mahsulotlarni ularning yangi turlariga qayta shakllantirishga yo‘naltirilgan barcha faoliyat turlari ishlab chiqarish jarayonlariga kiritilgan: tog‘ –kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, qayta ishlab chiqarish sanoati, elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash, suv ta‘minoti, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish, qurilish (tasniflagichning B,C,D,E,F seksiyalari). Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishni, iqtisodiyot tarmog‘i sifatida talqin qilishdagi tafovutni bartaraf etish maqsadida, yangilangan tasniflagichda qishloq xo‘jaligi faqatgina dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o‘z ichiga olmay, balki o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari mahsulotlarini ham o‘z ichiga oladi (Seksiya A “Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi”).

Shuningdek, xalqaro statistika amaliyotiga muvofiq, iqtisodiy trendlarni yanada aniqroq tahlil qilish maqsadida, Yalpi hududiy mahsulot tuzilmasidagi iqtisodiy faoliyat turlarining ulush ko‘rsatkichlari yalpi qo‘shilgan qiymatga nisbatan keltirilgan (ya‘ni, YaHM hajmidan mahsulotlarga soliqlar va subsidiyalar chiqarib tashlangan).

Nashr 13 ta tematik qismlardan tashkil topgan bo‘lib, u asosiy makroiqtisodiy indikatorlarni, shuningdek yalpi hududiy mahsulotni ishlab chiqarish, korxonalar va tashkilotlar, jumladan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining iqtisodiy faoliyati, investitsion faollik, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, sanoat, qurilish, bozor xizmatlarining rivojlanish dinamikasi to‘g‘risidagi statistika ma‘lumotlarini o‘z ichiga oladi.

Axborotnomada sanoat, qurilish, qishloq xo‘jaligi, transport, ichki va tashqi savdo, ulgurji va chakana savdo, mehnat bozori va demografik holat to‘g‘risidagi tahliliy ma‘lumotlar keng yoritilgan.

Qisqartma va shartli belgilar

YAHM	–	yalpi hududiy mahsulot	l.	–	Litr
%.	–	foiz	0,0	–	katta bo‘lmagan miqdor
mlrd.	–	milliard	m.	–	Marta
mln.	–	million	–	–	ko‘rsatkichning yo‘qligi
mln.AQSH doll.	–	million AQSH dollari	ga.	–	Gektar
kv.	–	kvadrat	tn.	–	Tonna
km.	–	kilometr	1), 2), 3)	–	izohning mavjudligi
m.	–	metr			

MUNDARIJA

Nomi	bet.
ASOSIY IQTISODIY KO‘RSATKICHLAR	6
I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT ISHLAB CHIQRISH	7-15
II. SANOAT	16-29
III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI	30-44
IV. INVESTITSIYALAR VA QURILISH	45-64
V. XIZMATLAR	65-79
VI. TRANSPORT	80-89
VII. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI	90-99
VIII. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR	100-106
IX. KICHIK TADBIRKORLIK (BIZNES)	107-114
X. KORXONA VA TASHKIOTLARNING MOLIVAVIY NATIJALARI	115-121
XI. KORXONALAR VA TASHKIOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA‘RIFI	122-138
XII. O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI	139-151
XIII. DEMOGRAFIYA	152-161

Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar yanvar-iyun oylarida

	<i>mlrd. so'm</i>		<i>2022-yil yanvar-iyuniga nisbatan, foiz hisobida</i>
	<i>2022-y.</i>	<i>2023-y.</i>	
Yalpi hududiy mahsulot	25 469,6	30 304,7	105,5
Sanoat mahsuloti	12 481,9	14 652,2	106,4
Iste'mol tovarlari	5 002,1	5 202,2	109,5
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	13 637,5	16 556,9	104,2
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	9 757,2	12 251,9	118,3
Qurilish ishlari	3 929,8	4 422,1	108,2
Yuk aylanmasi (mln. tn-km)	656,5	729,2	107,4
Yo'lovchi aylanmasi (mln. yo'lovchi-km)	6 663,9	6 630,7	102,0
Chakana tovar aylanmasi	10 399,5	12 198,8	104,7
Xizmatlar, jami	10 698,5	13 215,7	110,4
Tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSH doll.)	1 129,5	1 163,4	103,0
Eksport	299,5	286,9	95,8
Import	830,0	876,5	105,6
Saldo (+;-)	-530,5	-589,6	x